

## QADIMGI HINDISTON DINI

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Tarix kafedrasi o'qituvchisi*

**Bobojonov Behruz**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Tarix yo'nalishi talabalari*

**RASULLOVA UMIDA ,SIDIQOVA GULSANAM**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Tarix yo'nalishi talabasi*

**Imomova Orzugul**

**ANNOTATSIYA.** Ushbu maqolada qadimgi Hindistoning dini, xudolari haqida so'z boradi. Shu bilan birga dinning paydo bo'lishi rivojlanishi keng yoyilishini yoritadi va manabalr asosida tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Agni, Indra, Aditinani, Hinduizm, Vishnu, Shiva, Bhagavadgita, Mahabharata, Braxmanizm, Vedika, Buddizm, Dharma, Sangha, Sitharta Gautama.

**ANNOTATION.** This article discusses the religion and deities of ancient India. It also highlights the emergence, development, and widespread adoption of religion, analyzing these aspects based on various sources.

**Keywords:** Agni, Indra, Aditinani, Hinduism, Vishnu, Shiva, Bhagavad Gita, Mahabharata, Brahmanism, Vedic, Buddhism, Dharma, Sangha, Siddhartha Gautama.

**АННОТАЦИЯ.** В данной статье рассматривается религия и боги древней Индии. Также освещаются возникновение, развитие и широкое распространение религии, с анализом на основе различных источников.

**Ключевые слова:** Агни, Индра, Адитини, Индуизм, Вишну, Шива, Бхагавадгита, Махабхарата, Брахманизм, Ведизм, Буддизм, Дхарма, Сангха, Сиддхартха Гаутама.

**KIRISH.** Qadimgi Hindistonda juda ko'p urug', qabila va elatlar yashaganlar. Ularning xo'jaligi, turmush tarzi har xil bo'lganligi uchun diniy

e'tiqodlari ham turlicha bo'lган. Hindistonda yashagan aholi ko'п zamonlar tabiat hodisalariga ajdodlar ruhiga tog'- toshlarga, hayvonlarga suv va daraxtlarga sig'inish uzoq davom etgan. Ularda oy, quyosh va olovga sig'inish keng tarqalgan edi. Hindlarda Agni olov, Indra momaqaldiroq, Aditinani esa hosildorlik xudosi deb bilgan. Hindistonda diniy e'tiqodlarning kelib chiqishi ham boshqa xalqlar kabi ularning turmush tarzi va xo'jaligiga bog'liq bo'lган.

**ADABIYOTLAR TAHLILI:** Ushbu maqolada Muxibova U.U ning "Qadimgi hindiston adabiyoti" R.Rajabov "Qadimgi dunyo tarixi" J.Kabirovning

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** Hindistonning qadimiy dinlaridan biri bu hinduizm dinidir. Hinduizm dinining asosini qadimgi Hindistonning arxiak e'tiqodlari daraxtlar, tog', suv havzalari, ilon, sigir va maymun kabilarga sig'inish katta ro'l o'ynaydi. Bu dinda bosh yaratuvchi-xudo g'oyasi mavjud. Bu xudo Vishna hisoblanadi. U hayvonlar sirtlon, baliq, toshbaqa yoki insonlar odatda qora tanli podsho yoki cho'pon yani Kirishnalar qiyofasida namoyonbo'lган Vishna o'z navbatida ko'nsvator nomi bilan tanilgan. U oliv mavjudot sifatida hurmatga sazovor bo'lган. Vishna dharma tamoyillarinining himoyachisi ularni tartibsizlik va halokat oldida himoya qiladi. Boshqa bir hinduist jamoalari esa bosh hudo deb sopol parchalrini osgan asket yoki darvish yoki raqqos qiyofasida tasvirlanadigan Shivani tan olishadi. Unga ko'pincha muqaddas ho'kiz hamkorlik qilgan. Shiva hudosи Mahadeva nomi bilan mashhur bo'lib, bugungi kunda hinduizmning xudolaridan biridir. Hinduistlar qadimgi davr oxiri va hozirgi kunlarda Vishna va Shivaga e'tiqod qiluvchilar jamoasiga bo'linadi. Hinduizm dini mafkurasining asosiy belgilari "Bxagavadgita poemasi" bo'lib "Xudo qo'shiqlari" degann ma'noni anglatadi. Bu poema Maxabxarata tarkibiga kiritilgan. Hinduizm dinida cheksiz sabr-toqat qilishga chaqiriladi. Ijtimoiy munosabatlarda asa inson muloqati o'z ijtimoiy doirasi bilan cheklanish kerak deb hisoblaydi. Ya'ni kasta bo'yicha kasbni o'zgartirish taqiqlanadi. Nikohni bolaligidan o'qitish odati tarqalgan. Bevani o'z eri gulxanida kuydirgan paytda o'zini olovga berishi eng savobli ish hisoblanadi.

**MUHOKAMA.** Hindistonda davlatlar vujudga kelishi munosabati bilan Hindistonning ko'p joylarida Braxman dini keng yoyilgan. Braxmanizm Vedika davrida mil.avv 1500- yildan boshlangan. Braxmanizm asosan metafizik ma'naviyatga asoslangan, shuning uchun uning ko'pgina tushunchalari jismoniy muhitdan tashqarida bo'lган savollar bilan bog'liq. Braxmanizm dinining bosh xudosi Braxma hisoblangan. U yaratuvchi va o'z navbatida hech qachon yaratilmagan xudo sifatida tan olinadi. Braxmanizm dinining ruhoniylari Braxmanlar deb atalgan. Keyinchalik mil.avv 500-yillarga kelib yuqorida ta'kidlab o'tilganidek hinduizm paydo bo'lishi bilan sig'inish Shiva va Vishna kabi boshqa xudolarga ham qaratila boshlagan. Hindistondagi diniy e'tiqodlardan yana biri bu buddizm bo'lган. Bu dinning asoschisi Shakyamuni qabilasidan bo'lган Sitharta Gautamadir. U buddizm diniga mil.avv VII-VI asrlarda asos solgan. Sitharta Gautama Buddha - Marifatlangan laqabi bilan o'z ta'limotini mamlakat bo'ylab 40 yil targ'ib qilgan. Buddizm dinining boshqa dinlardan farqi shundaki hech qanday o'zgarmas narsa yo'q, hatto xudo ham ozgaruvchan deb uqtiriladi. Buddizin zaminida Buddha Dharma va Sangxaga e'tiqod qiladi. Buddha oliy haqiqatga etishishning yorqin timsoli sifatida qaraladi. Dharma esa Sitharta Gautama qoldirgan ta'limot.

**TADQIQOT METODOLOGIYASI:** Manbashunooslik, matnshunoslik, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlar bilan ishslash.

**TAHLIL VA NATIJALAR:** Qadimgi Hindistonda juda ko'p urug' qabila va elatlar yashagan. Ularning xo'jaligi, turmush tarzi har xil boiganligi uchun diniy e'tiqodlari ham turlicha boigan. Hindistonda yashagan aholi hayotida tabiat hodisalariga, ajdodlari ruhiga, tog'-toshlarga, hayvonlarga, suv va daraxtlarga sig in ish uzoq davom etgan. Ularda oy. quyosh va olovga sig'inish keng tarqalgan edi. Hindlar Agni olov, Indra momaqaldiroq, Aditinani esa hosildorlik xudosi deb bilganlar. Hindistonda diniy e'tiqodlam ing kelib chiqishi ham boshqa xalqlar kabi ularning turmush tarzi va xo'jaligi bilan bog'liq bo'lган. Davlatlar vujudga kelishi munosabati bilan Hindistonning ko'p joylarida braxman dini keng yoyilgan. Bu din m.av. IX -V III asrda vujudga kelib, uning xudosi Braxma b oigan. Bu dinning

ruhoniylari braxmanlar deyilgan. Ularning taiim o'ti bo'yicha Braxma olam va odamning yaratuvchisi hisoblangan. Aditinani "hammaning onasi", "ham ma narsaning mohiyati", "abadiyat", "varatiigan va yaratuvchi" kabi nomlar bilan ulugiaganlar. Dastlab momaqaldiroq, hosildorlik xudosi hisoblangan Indra keyinchalik hokim, hukmdor va podsholar homiysiga aylangan. Indra so'zining o'zi ham podsho, hokim, hukmdor kabi m'a'noni anglata boshlagan. Hindistondagi diniy e'tiqodlardan yana biri buddizm boigan. Bu din m.av. V III-V I asrlarda vujudga kelgan. Dinning asoschisi shahzoda Siddhartha Gautama bo'lган. U Buddha- „Ma'rifatparvar” laqabi bilan o'z talim otini mamlakat bo'ylab 40 yil davomida targ'ib qilgan. U braxman xilidagi kasta-tabaqalarga boinishni qoralab, jamiyatdagi barcha kishilar xudo oldida tenghuquqqa egadirlar. deb ta'lim bergen. Keyinchalik buddiylik davlat dini darajasiga ko'tarilib, avval Turonning janubiy hududlari, keyin Xitoy va Markaziy Osiyoga yoyiladi. Shuni ham aytib o'tish joizki, Qadimgi Hindistonda zardushtiylik dinining an'analari ham saqlanib qolgan va hozir ham ular hududning g'arbida faoliyat ko'rsatar ekanlar. Shunday qilib, Qadimgi Hindiston xalqlari o'zlariga xos boy madaniyat yaratganlar. Keyinchalik hind madaniyatidan janon xalqlari bahra olganlar. Hindistonda keyingi vaqtida olib borilgan arxeologik va ilmiy tadqiqotlar ba'zi g'arb olimlarining hindlar hech qanday madaniyat yaratmaganlar degan fikrlarini chippakka chiqardi. Ta'bir joiz bo'lsa hind xalqlari ilm-fanning ba'zi sohalarida yevropaliklardan o'tib ketishgan.[1]

Qadimgi hind adabiyotining mashhur yodgorligi «Rigveda»ning minglab madhiyalari va so'nggi veda adabiyotlari oriyaling diniy e'tiqodlari to'g'risida boy ma'lumot beradi. Qadimgi Hindistonda xudolar pog'onasi mavjud emas. Xudolar samoda yashaydi. Oriylar xudolar tasviriga sig'inganlar. Qurbonlik keltirish, olovga moy quyish, arpa donini tanlash bilan ifodalangan, quyoki qurbonlik tutun bilan samoga ko'tarilib, xudolar qurbonlikdan to'yib yerdagi bandalariga ovqat yuboradilar. Dastlab ibodatxonalar qurish rasm bo'lmagan. Kohinlar yopiq tabaqa bo'lган. So'nggi veda davrida kohinlar alohida toifa, braxmanlar varnasini tashkil qilganlar va boshqa vamalardan mavqelari

yuqoriligiga da'vo qilganlar. Uch varnadan birortasining to'la huquqli a'zosi bo'lish uchun faqat bu vamada tug'ilish emas, balki braxman o'qituvchining uyida o'qish va maxsus bag'ishlov marosimlaridan o'tishi lozim edi. Bag'ishlov marosimida bolaga muqaddas ip ilganlar bu «ikkinchи tug'ilish» hisoblangan. Shudralarga marosimga ishtirok etishga ruxsat berilmagan. «Ikkinchi tug'ilish» marosimi Veda matnlarini o'qish va diniy sirlarni bilish huquqini bergen. Veda matnlarini o'qituvchidan o'quvchiga faqat og'zaki uzatganlar. Natijada vaqt o'tishi bilan matnlar mazmuni o'zgarib ketgan.[2]

Er. avv. I ming yillik o'rtalarida yangi diniy e'tiqodlar vujudga keldi. Ularning eng muhimi budda dinining «Uch qimmat»i edi. Bu Buddaning o'zi, draxma-uning ta'limoti va sangxa-unga e'tiqod qiluvchilar jamoasi hisoblanadi. Buddha dinining asoschisi Shaq'ya zodagon urug'idan bo'lган shaxzoda Sidxartxa Gautama bo'lган. Uzoq azob chekishlardan so'ng, daraxt soyasida Sidxartxaga yorug'lik ma'rifati tushadi. Shundan so'ng, Sidxartxa ma'rifatli (Buddha) bo'ladi. Buddha ta'limotining o'ziga xos xususiyati u hayotni azoblanish deb tushuntiradi. Azoblanish o'lim va kasalliklar bilangina bog'liq emas, balki eng yaxshi bo'lib qayta tug'ilishlar zanjiri bilan bog'langan. Azob ko'rishning sababi yangi hayotda boylik, huzurhalovat, yaxshi hayot kechirish yoki yaxshi taqdir uchun kuyib 182 pishishdir.[3] Qiynalishlardan qutilishning yo'li o'z ruhi, yurishturishi, ustidan to ia nazorat o'rnatish va buning oxirgi maqsadi nirvana («uchish, sun'iy») bo'lib, shundan so'ng, kishi zanjimi yorib o'tadi va u boshqa tugilmaydi. Buddaviylikni ilk o'qituvchini tasvirlash an'anasi yo'q edi, faqat budda ramziga tayanadigan asosiy e'tiqod inshooti stupa—soyabon ostidagi sun'iy tepalik edi. Dindorlar stupa va undagi Buddha sochi yoki tishiga chapdan o'ngga (quyosh bo'yicha) o'zini gunohlardan holi qilish uchun bu dunyo hayotidan u oilasidan, mulkidan tashqi an'anaviy aloqalardan ruhiy bogianishlardan kechishi kerak. Buddha muridlari qizgish kiyimda, sochlari taqir olinib, qishloq va shaharlami kezib, sadaqa so'rab yurganlar. Ulami bxikshu (gadoy) deb ataganlar. Buddha dini uchun turmush marosimi hech qanday ahamiyatga ega emas edi. Dindorlar awalgiday to'y, o'lim marosimlariga braxmanlami chaqirar edilar. Buddha matnlari mahalliy so'zlashuv

tillarida tuzilgan boiib, aholiga tushunarli edi. Braxmanlar esa sanskrit adabiyotini aholining juda ko‘p qismidan yashirar edilar. Budda dini, ayniqsa, shahar aholisi o‘rtasida keng tarqaldi, chunki shahar paydo boiishining o‘zi an’anaviy urug‘chilik ijtimoiy aloqalarini yemirilishi, xususiy mulkning paydo boiishi, shaxsnингjamoadan ajralishi bilan bogiiq edi. Buddaviylik e’tiqodi yirik davlatlar hukmdorlarining homiyligi ostida boidi.[4]

Chunki budda matnlarida jahon hukmronligi g‘oyasini ilgari surilib, qaysiki, bu hukmdor orqali adolat podsholigiga asos solinadi degan tushuncha mavjud edi. Adolatni tarqalishi bir vaqt ni o‘zida hukmdoming hokimiyatini kuchayishi bu diniy g‘oyaga to‘g‘ri kelishini bildiradi. Dastlab budda dini xudosizlar dini edi. Keyinchalik Buddaga nisbatan munosabat o‘zgardi. Uning tasviri paydo boidi. Ibodatxonalar qurilib, budda ilohiy mavjudot ekanligi aytila boshlandi. Dunyoning oxirati va uning kelajagida qutqaruvchi Buddanинг kelishi tushunchasi shakllana boshlaydi. Buddha maktablari ikki asosiy yo‘nalish: «kichik arava» («yoki qutilishning tor yoii») va «buyuk arava» («yoki qutilishning keng yoii») dan iborat edi. Ulaming birinchisi eng qadimiylilikka da’vo qilib, Ashoki davridayoq Lanka orolida va keyin janubiy-sharqiy Osiyoga tarqaldi. «Buyuk arava» ta’limoti yanada kattaroq yutuqlarga erishdi. Kushon podsholari homiyligi ostida bu yo‘nalishO‘rta Osiyo orqali Eron, Xitoy, Tibet, Mongoliya va Yaponiyaga tarqalgan. Hinduizm asosini qadimgi Hindistonning arxaik e’tiqodlari daraxtlar, tog‘, suv havzalari, ilon, sigir va maymun kabilarga sig‘inish tashkil etadi. Hozirgi kunda ham hinduizmda, qadimgi davrdan boshlab ma’buda onaga sig‘inish katta rol o‘ynaydi. Hinduizmda bosh yaratuvchi - xudo g‘oyasi mavjud. Bu xudo Vishna bo‘lib, u hayvonlar sirtlon, baliq, toshbaqalar, yoki insonlar odatda qora tanli podsho, yoki cho‘pon (krishnalar) qiyofalarida namoyon bo‘ladi. Vishna boshqa kichik xudolar timsoliga kirishi mumkin. Vishna odatda podsho tojida, ba’zida dunyo iloniday yastanib yotgan holda tasvirlanadi. Boshqa hinduistlar bosh xudo deb sopol parchalarini osgan asket (darvesh) yoki raqqos qiyofasida ifodalananadigan Shivani hisoblaydilar. Shivaga ko‘pincha unga bag‘ishlangan muqaddas ho‘kiz hamkorlik qiladi. Qadimgi davr oxiri va hozirgi

kunlarda hinduistlar Vishna va Shivaga e'tiqod qiluvchilarga bo'linadi. Hinduistlarning muqaddas matnlari vedalar hisoblanadi. Hinduizmda ibodatxonada toat-ibodat qilish rasm bo'ldi. Bayram tantanalarining eng muhim qismi tantanali yurishlar, namoyishlar bo'lib, xudoning tasviri olib yurilgan. Ibodatxona oldida uning xizmatchilari kohinlar, raqqoslar, musiqachilar yashagan. Hinduizm mafkurasining asosiy belgilari «Bxagavadgita» («Xudo qo'shiqlari») poemasi bo'lib, «Maxabxarat» tarkibiga kiritilgan. Hinduizmning axloqida cheksiz sabr-toqat qilishga chaqiriladi. Ijtimoiy munosabatlarda inson muloqoti o'z ijtimoiy doirasi bilan chekhanish kerak. Kasta bo'yicha kasbni o'zgartirish ta'qiqlanadi. Nikohni bolalikda o'qitish odati tarqalgan. Bevani o'z erini gulkanda kuydirgan paytda o'ziga olov berishi eng savob ish hisoblangan.[5]

XULOSA VA TAKLIFLAR:Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki,Qadimgi Hindiston dini jamiyat taraqqiyoti muhim o'rinnegallagan.Nafaqat hindiston balki boshqa davlatlarga ham bevosita ta'sirini o'tkazgan.Qadimgi Hindistonda ko'plab dinlar mavjud bo'lган. Hindistonning qadimgi dinlariga tarixiy jihatdan nazar tashlaydigan bo'lsak qadimdan mavjud bo'lган dinlar nafaqat avval balki hozirgi zamonda ham ma'lum darajada saqlanib qolgan. Bu dinlarning urf-odati, marosimlari, bayram kunlari hind aholisi o'rtasida amal qilinmoqda. Qadimgi dinlar nafaqat Hindistonda balki boshqa hududlarda ham keng tarqalgan. Bunga misol tariqasida hozirgi kunda dunyoviy dinga aylanib ulgurgan Buddaviylik dinidir. Bu dinga hozirgi kunda 500 milliondanortiq odamlar e'tiqod qiladi.

Taklif o'rnida shuni aytib o'tish joizki,bu mavzuni yanada chuqurroq o'rganish uchun adabiyotlarni tahlil qilish,ko'proq ma'lumotlar olish uchun talabalar bilan davra suhbatlari o'tkazish maqsadaga muvofiq bo'ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

- 1.J.Kabirov "Qadimgi sharq tarixi" TOSHKENT - 2016 "Tafakkur" nashriyoti
2. R.Rajabov "Qadimgi dunyo tarixi" TOSHKENT - 2009
- 3.U.U.Muxibova "Qadimgi hindiston adabiyoti" TOSHKENT-2010
- 4."Ancient Indian culture" R.CH.Majumdar 2016.